

**O'ZBEKISTONGA XORIJDAN KIRIB KELGAN RANGTASVIRCHI  
RASSOMLAR ASARLARINI ILMIIY JIHATDAN O'RGANISH**

**Abdimuminov Muhammad Sodiq**

Namangan davlat universiteti

Tasviriy va amaliy san'at kafedrası O'qituvchisi

**Annotatsiya:** XX asrning birinchi choragida O'zbekistonda yangi tasviriy san'at texnologiyasidan ta'lim beruvchi badiiy maktablari va ijodiy studiyalar yuzaga kela boshladi. Jumladan Toshkent, Qo'qon, Farg'ona va Buxorodagi ayrim maktablarda rassomlik to'garaklari ochilishi bilan birga, studiyalar ham tashkil topa boshladi. Shu kabi ijodiy studiyalarda rus va boshqa millat farzandlari bilan bir qatorda, mahalliy yoshlar ham badiiy ta'lim olishga kirishdilar.

**Kalit so'zlari:** Kopanovka, kompozitsiya, ritm, peyzaj, plener, Perspektiva, ob'yekt, kolorit, kontrast, simmetriya, asimmetriya, monemental.

**Kirish.** XX asr boshlarida O'zbekistonda Yevropa tasviriy san'ati an'analari shakllana boshladi. O'sha paytda bu yangi sohada ijod qiluvchi mahalliy rassomlar manbalarda uchramaydi. XIX asr oxirlarida ijodiy yo'nalishi Sharq miniatyurasi uslubiga yaqin turuvchi – Ahmad donish, Fakir al-haqir Raxmatulla, Raxmatilla ben Mulla Abdushukur, Sirojiddin Maxsum Siddikiy kabi ayrim rassomlarni inobatga olmaganda, deyarli kam sonli rassomlarga faoliyat yuritar edi. Bu esa O'zbekistonda XX asr boshlarida mahalliy rassomlar guruhi keng bo'lmaganligini anglatadi. Shu bois o'sha paytlarda rus va boshqa millat rassomlari ijodi orqali mamlakatda asta-sekin yangi noan'anaviy tasviriy san'at turlari – dastgohli rangtasvir, grafika va haykaltaroshlik shakllana boshladi. Bunda chetdan kelgan ijodkorlar jumlasiga rus rassomlari N.N.Karazin, Dmitiriy Kavkazskiy, O.Fedchenko, shuningdek, S.Svetoslavskiy (ukrainalik), G.Gabashvili (gruziyalik), haykaltarosh Mikeshin va boshqa ko'plab rassomlarni misol keltirish mumkin.

XX asrning birinchi choragida O'zbekistonda yangi tasviriy san'at texnologiyasidan ta'lim beruvchi badiiy maktablari va ijodiy studiyalar yuzaga kela boshladi. Jumladan Toshkent, Qo'qon, Farg'ona va Buxorodagi ayrim maktablarda rassomlik to'garaklari ochilishi bilan birga, studiyalar ham tashkil topa boshladi. Shu kabi ijodiy studiyalarda rus va boshqa millat farzandlari bilan bir qatorda, mahalliy yoshlar ham badiiy ta'lim olishga kirishdilar. Bu yoshlar orasida A.Siddiqiy, I.Ikromov, O'.Tansiqboyev, B.Hamdamiy, A.Toshkenboyev, N.Karaxan, G.Nikitin, V.Yeremyana va boshqa qator rassomlar bor edi. Ular keyinchalik O'zbekiston tasviriy san'atining dastlabki milliy kadrlari sifatida maydonga keldilar. Bu kichik badiiy maskanlar salmog'i oshib bordi, 1918 yili Samarqand rassomlik maktabi, 1919 yili Toshkentda Turkiston o'lka rassomlik maktabi faoliyat boshladi. Mazkur ijodiy ta'lim maskanlarida o'qiy boshlagan ilk mahalliy yoshlar ijodiy balog'atga erishib, tanilguniga qadar XX asr boshlarida O'zbekiston tasviriy san'ati rivoji boshqa millat vakillaridan iborat tajribali rassomlar ijodiga bog'lanib qoldi. Biz quyida shunday rassomlarning ayrimlari haqida zaruriy ma'lumotlarni keltirishni maqsad qildik. Quyida ijodiy faoliyati qayd etiladigan boshqa millat rassomlari to'g'risidagi avtobiografik va foto ma'lumotlar hamda ijodiy faoliyatiga doir mulohazalar 1960 yilda nashr etilgan muallif I.Irasning "O'zbekiston rassomlari" (Toshkent, 1960 y) nomli kitobiga asoslangan holda havola etiladi. Mazkur kitob biz keltirgan ma'lumotlarning asosiy manbasi bo'lib xizmat qiladi.

**Ivan Semyonovich Kazakov.** O'zbekiston tasviriy san'atining shakllanishiga o'z hissasini qo'shgan rassomlar jumlasiga Ivan Semyonovich Kazakovni ham kiritish mumkin. U oddiy dehqon oilasidan chiqqanligi uchun bolalik davrida juda ko'p qiyinchiliklarni boshidan kechirdi. Kazakovni shu og'ir sharoitda qo'llagan, keyinchalik ijodkor bo'lishiga amakisi sababchi bo'lgan. Uning amaliy yordami bilan Kazakov keyinchalik rassomchilik ilmini o'rganishga imkon topgan. Amakisi Kazakovni o'n yoshligida Moskvaga olib borib, o'qish va rasm chizishga ishtiyoq uyg'otdi va Moskvadagi rangtasvir, haykaltaroshlik va me'morchilik maktabiga o'qishga kirishiga yordam berdi.

U maktabda tasviriy san'atni o'rganayotgan paytida mashhur rassom V.E.Makovskiy uning qobiliyatli ekanini sezib, maktabni tamomlagandan keyin, Kazakovni Badiiy akademiyaga o'qishga kirishiga ko'maklashadi, u erda o'z guruxiga qabul qiladi. Kazakovni stipendiya bilan ta'minlaydi. Yosh rassom tasviriy san'atning realistik uslubini o'sha paytlardan boshlab o'rgana boshlagan edi. U ijodda borliqni realistik aks etdirish bo'yicha o'zini ko'rsata olgan edi. Bu borada u o'z ustozining mashg'ulotlardagi o'gitlarini zo'r ishtiyoq bilan o'zlashtirdi. Kazakov o'qish davrida bajargan birinchi mustaqil ishi "Qishloq kosibi huzurida" (1896) deb nomlanadi hamda peredvijniklar uslubiga yaqin ishlangan "Qishloq kasalxonasida" (1898) nomli diplom ishi ham realistik uslubda mahorat bilan bajarilgan. Kazakov Badiiy akademiyani 1898 yili tamomlagandan so'ng o'zining diplom ishini ishlash uchun chet elga borish huquqini qo'lga kiritadi. U tasviriy san'at maktabi juda uchli rivojlangan mamlakatlar – Germaniya, Italiya va Frantsiyada ijodiy safarda bo'lib yanada ko'proq tajriba to'playdi. Shu tariqa u mohir rassom sifatida shakllanadi.

Kazakov Yevropa safaridan qaytganidan so'ng Peterbugga qaytib keladi va safar davomida ishlagan asarlarini Badiiy akademiyadagi ustozlariga ko'rsatadi. Uning ijodiy ishlari ustozlariga juda ma'qul bo'ladi. Uning bu asarlari shunchaki tashqi go'zalliknigina emas, balki, oddiy xalq turmushini aks ettirgan edi. Biroq, Akademiya rassomlari o'sha paytda tashqi go'zallikka ko'proq e'tibor qaratar edilar, xalq turmushini tasvirlashni esa unchalik ximoya qilmas edi. Shunga qaramay yosh rassom ijodiga ijobiy baho berdilar. Kazakov O'zbekiston (Toshkent) ga 1938 yilda kelgan. Bu vaqtda u moxir rassom sifatida tanilmagan bo'lsa ham juda mahoratli ijodkor darajasida edi. Shu paytlarda Kazakov Toshkentdagi real'noe uchilishchega rasm fanidan dars berish uchun o'qituvchiligiga qabul qilindi. "Yangi o'lkaning notanish tabiati, ko'zni qamashtiruvchi quyoshi, yorqin buyoqlari va o'ziga xos turmushi rassomni maftun etdi. Kazakov o'zining bu davrda yaratgan asarlarida realizm yo'lidan bordi. Kazakov o'sha davrda keng tarqalgan, yarim janr, yarim peyzaj xarakteriga ega bo'lgan etyudlar yaratuvchi rassomga aylanib qoldi. Kazakovning O'rta Osiyoda yaratgan dastlabki asarlaridan "Xudoning xohishi" (1907), "Namoz" polotnosida rassomni qiziqtirgan urf-odatgina aks etdirilgan. Kazakov yangi o'lkadan olgan ta'assurotlarini, ya'ni uning nodir arxitektura yodgorliklarini, maydon va ko'chalarini, bozor va choyxonalarini, chaman bog' va soya-salqin hovuzlarini ishtiyoq bilan aks etdirdi"<sup>1</sup>. Kazakov O'zbekistonda pedagoglik faoliyati bilan birga juda ko'plab ijodiy asarlar ham ijod qildi. Uning eng yaxshi asarlari 1927-1928 yillarda Toshkentda o'tkazilgan ko'rgazmalarda namoyish etdi. Ko'rgazmada namoyish etilgan asarlari orasida "Qayragochli peyzaj" manzarasi bo'lib, u mahorat darajasining yuqoriligi bilan ajralib turadi. Shu ko'rgazmaning o'zida Kazakov bir necha portretlarini ham namoyish qildi. 1930-yillardan boshlab, Kazakov ijodiy ishlardan bir muncha uzoqlashib, asosiy vaqtini o'qituvchilik qilishga sarfladi, yosh rassomlarga tasviriy san'atni o'rgatishga e'tiborni kuchaytirdi. **Mixail Aleksandrovich Arinin.** Arinin birinchi badiiy ta'limni 1914

<sup>1</sup> Ирас. Ўзбекистон rassomlari. Тошкент, 1960 й.Б-92.

yildan boshlab Saratov shahridagi Bogolyubov rassomchilik maktabida olgan. Arinin o'z ijodida peredviyniklar (Peredviyniklar - XIX asrning ikkinchi yarmida ijod qilgan rus realistik rassomlar guruhi, mashhur ko'chma vistavkalar qatnashchilari) san'atiga tez-tez murojaat qilar edi. Arinin o'qishdan tashqari tasviriy san'at sirlarini mukammalroq o'ranish maqsadida "realist rassom A. O. Nikulinning ustaxonasiga shogirdlikka kirdi. O'z ustozlarining vasiyatlarini hurmat bilan esida saqlab keluvchi sermulohaza va kamtar pedagog A.O.Nikulin yosh yigitning maqsadlarini quvvatladi, uning qalbida san'atga nisbatan muhabbat uyg'otdi va unga realistik san'atning boshlangich asoslarini o'rgatdi"<sup>2</sup>.

Arinin tasviriy san'at borasida tajribaga erishgach P.S.Utkinning ustaxonasiga ishga kirdi va asarlar yarata boshladi. Rus rassomi B.A.Serovning shogirdi bo'lgan P.S.Utkin o'sha paytlar o'z ijodida realizmdan bir muncha uzoqlashgan holda eski uslubda dars berar edi. U o'z shogirdlariga juda talabchan bo'lib, ijodda aniqlikni yaxshi ko'rar edi, shu sababli, rasm ishlash vositalarini to'g'ri tanlashni, kompozitsiyaning tabiiy va ta'sirchan bo'lishiga e'tiborli bo'lishni shogirdlaridan talab qilardi. Uning ustaxonasida bilim olgan rassomlar mustahkam professional mahoratga ega bo'lib chiqardilar. Arinin 1924 yili institutni tamomlab O'zbekistonga keldi. shu yillardan boshlab Qoqon shahrida ijod qila boshladi. U nafaqat ijodkorlik bilan shug'ullandi, balki tasviriy san'atdan o'quvchilarga saboq ham bera boshladi. Ijodiy ishlarini esa Saratovda o'tkazilib turadigan ko'rgazmalarga yuborib turardi.

Rassom o'zining dastlabki ijodiy ishlarida "O'zbek musiqachilari" (1927), "Paranjini yondirish (8 mart)" (1932) mavzusida kartina ishladi.

1935 yildan Arinin hayotida o'zgarish bo'ldi, u Toshkentga kelib ijodini davom ettirdi. U ayni paytdan boshlab asarlarida o'zbek xalqining turmushi, ularning udumlari va tabiati manzaralarini mahorat bilan tasvirlar edi. Shu o'rinda uning "G'o'za chopig'i" (1935), "Yo'l qurilishi" (1936), "Paxta topshirish" va "Charm kamzul kiygan qiz" (1937) kabi asarlarini misol keltirish mumkin. "M.A.Arinin 1941 yilning sentyabrda bo'lib o'tgan O'zbekiston rassomlarning birinchi mudofaa ko'rgazmasida, o'zining Ulug' Vatan urushi mavzusiga bag'ishlangan bir qancha asarlarini namoyish etdi. "Ko'ngillilarni ro'yxatga olish", "PVXO darsi", "Uchuvchilar" va "UzTAG oynasi" uchun ishlangan qator ajoyib plakatlar shular jumlasiga kiradi. Lekin bu asarlarda hali tinchlik davrining ruhi saqlanib qolgan va shuning uchun ularda keskinlik hamda kamtarlik etishmas edi"<sup>3</sup>. M.A.Arinin yangi mavzular topish, yangi-yangi taassurotlar ortdirish uchun Boysun temir yo'li qurilishiga boradi. U yerda rassomlar guruhi bilan birga agitatsiya ishlarini olib boradi va etyud materiallar to'pladi. Arinin ikkinchi jahon urushi yillarida Shimoliy Kavkaz frontiga rassomlar guruhi bilan birga bordi. Ular shu davrlarda Sezer Kunnikov qo'l ostidagi dengiz piyoda askarlari safida bo'ldilar, va dushmandan tozalangan Novorossiyskni rasmlar bilan bezadilar.

Rassomlar ijodiy ish bilan bir qatorda tashkiliy ishlarni ham bajarib ko'rgazmalar tashkillashtirdilar, urush qahramonlarning portretlarini ishladilar.

Urush tugagach u ikkinchi jahon urushiga bag'ishlangan "Nemislar ketgandan so'ng" nomli kartinasini yozdi. Shuningdek u 1949 yili bo'lib o'tgan O'zbekiston rassomlarining respublika ko'rgazmasida "Fashistlar zindonida" degan asari bilan ishtirok etdi. Urushdan keyingi yillarda M.A.Arinin tasviriy san'atning maishiy janrida ham ijod qilgan. Masalan, uning O'zbekiston kolxozchilari turmushiga bag'ishlangan "Kechqurun dala shiyponida" (1947), "Musobaqalashmoqdalar" (1949), "O'taliqdagi kolxozga kelish" (1954) kabi kartinalarini yaratdi. M.A.Arinin o'sha paytlarda yana Toshkentdagi A. Navoiy nomidagi teatr pannosini (1956-1957) yaratishda faol qatnashdi. Rassomning xizmatlari 1951 yilda

<sup>2</sup> Ирас. Ўзбекистон rassomlari. Тошкент, 1960 й.Б-96.

<sup>3</sup> Ирас. Ўзбекистон rassomlari. Тошкент, 1960 й.Б-96

«Hurmat belgisi» ordeni bilan mukofotlandi va O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi degan unvonni qo'lga kiritdi.

**Maksim Yevstafevich Novikov.** Maksim Yevstafevich Novikov O'zbekistonning eng keksa rassomlaridan biridir. Uning ota-onasi yoshligida Ukrainadan Kiyevga ko'chib kelganlarida Novikovni durudgorlik hunarini o'rganishi maqsadida uni duradgorlar ustaxonasiga berishadi. Biroq u durudgorlik hunarini emas, balki rassomlik sirlarini o'rganishga ko'proq qiziqib qoladi. Shuning uchun keyinroq rassomlik maktabiga o'qishga kiradi va maqsadiga erishadi. “Mehnatkash dehqon oilasida tariyalangan, rus realistik adabiyoti va san'atining demokratik traditsiyalaridan ma'naviy oziq olgan Novikov hayotga har doim mehnatkash kishilar ko'zi bilan qarar edi. Har qanday sharoitda ham millionlarcha kishilarga tushunarli asarlar yaratish istagi – Novikov ijodining ajoyib hislatlaridan biridir. Novikov san'atning demokratik yo'nalishida ekanligi, shubhasiz hurmatga sazavordir. Novikov o'zining eng yaxshi asarlarida peredvijnik ustozlarining badiiy ideal va maslahatlariga sodiq bo'lib qoldi”<sup>4</sup>.

Novikovning O'zbekistondagi dastlabki etyudlari Bustonliq tog'li joylarining tabiat manzaralari hamda shaharlarining ko'rinishlariga bagishlangan. Masalan, shu o'rinda uning “Toshkentning bozor ko'chasi”, “Registon yonidagi do'kon” singari eng yaxshi etyudlarda manzara va rangning g'oyat mohirona uyg'unlashtirilganini, syujetlarning g'oyat mukammalligini ko'rishimiz mumkin.

Novikov O'zbekiston rassomlaridan birinchi bor yirik peyzaj kartinalarini bajarishda industriya mavzusiga va respublikadagi xalq qurilishlariga e'tibor qaratdi. Rassom o'z ijodi davomida ikkinchi jahon urushi arafasida Chirchiq qurilishiga bagishlangan peyzajlarini hamda 1940-942 yillarda esa rassom Shimoliy Farg'ona kanali qurilishining ayrim uchastkalarini tasvirladi. 1945 yilda u “Qodriya GES”ini, 1956 yilda esa “Paxtakor” stadionining qurilishi” va “Poyabzal fabrikasi” kartinalarini zo'r mahorat bilan tasvirladi.

Rassomning badiiy mahorati ko'proq lirik kayfiyatdagi manzaralarni yaratishda ko'rinadi. Rassomning manzara janrida ishlangan asarlarida O'zbekiston tabiatiga xos ko'rinishlar, jumladan, qish faslini axromatik ranglar uyg'unligida ifodalash, quyosh nurida toblanib turgan qorni juda ifodali tasvirlagan. Shu o'rinda uning “Anhor buyida bahor” (1924), “Eski Toshkentda qish” (1925), “Kuz” (1925), “Turkistonda qish” (1927), “Gullagan shaftolilar” (1936), “Botanika bog'ida bahor” (1940), “Qish fasli” (1940), “Bog'larda bahor” (1948), “Kuzgi oqshom” (1950), “Anhor qish paytida” (1956), “Eski shahar ko'chasi” (1956) kabi asarlarini misol keltirish mumkin. Ayniqsa rassomning “Bahor etyudlaridagi chaman bog'lar kishini zavqlantiradi. Rassomning mo'jazgina ishlangan kartinalarida hali nami qochmagan er, endigina maysa bo'lgan ko'kat va gullar jonli qilib tasvirlangan. Ularda endigina uyg'onib kelayotgan tabiat juda ustalik bilan aks ettirilgan. “Anhor bo'yida bahor” (1924), “Bog'larda bahor” singari ko'pgina bahor etyudlari faqat kaloritining yaxshiligi va tuzilishining to'g'riligi bilan emas, balki tabiatimiz uchun tipikligi bilan ham diqqatga sazavordir”<sup>5</sup>. Novikovning yana manzara janriga mansub kuz etyudlarini ham alohida tilga olish mumkin. Masalan, uning 1925 yilda ishlangan “Kuz” va “Kuzgi oqshom” etyudlari alohida ajratilib turadi.

**Pavel Viktorovich Gan.** XX asr boshlarida ijod qilib O'zbekiston manzara janri rivojiga munosib hissa qo'shgan rassomlardan yana biri Pavel Gan hisoblanadi. U O'zbekistonga kelganida yurtimizning orombaxsh xushmanzarali joylari, tabiatining ulug'vorligi, kengligi, va go'zalligini yoqtirib qoldi. Shu vaqtdan boshlab rassom qariyb har yili ta'til paytida Bustonliq tumanining tog'li qishloqlariga chiqadigan

<sup>4</sup> Ирас. Ўзбекистон рассомлари. Тошкент, 1960 й.Б-146.

<sup>5</sup> Ирас. Ўзбекистон рассомлари. Тошкент, 1960 й.Б-147.

bo'ldi. Gan manzaralarining koloriti ixcham, kompozitsiyasi sodda va aniq, uslubi esa jonlidir.

P.V.Ganning manzaralari O'zbekistondagi boshqa rassomlarning asarlaridan farq qiladi. Bu holatni asarda syujet tanlash, peyzajlarning kompozitsiyasi, hatto koloritida ham emas, balki rassomning tasvir etayotgan tabiatga o'ziga xos lirikfalsafiy nazar bilan qaraganida deyish mumkin.

O'zbekiston manzarasi rassomlari orasida o'z asarlarida uy xayvonlarini (yilqi, sigir, echki va qo'y podalarini) Gan singari alohida e'tibor, chuqur muhabbat bilan tasvirovchi rassomni uchratish qiyin. Gan bunday asrlari orqali tabiat boyliklarini kishilarning manfaati uchun buysundirish motivlariga ko'poq e'tibor berishga intiladi. Tabiatni shoirona tasavvur qilish rassom ijodining eng asosiy xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Manzarachi rassom ijodida odatda syujetli kompozitsiyalarda ham tabiat ko'rinishlariga katta e'tibor qaratiladi. Uning ijodi shunisi bilan harakterliki, uning deyarli barcha mavzuli kartinaning mazmu tabiatsiz aks etdirilmagan, mavzuli asarlarida ham doim manzara ko'rinishlari tasvirlanadi. Shu o'rinda uning "Chirchiqstroyning bosh qurilishi" (1936), "Haydalgan yerda" (1938), "Paxta xirmonida" (1940), "Mirob" (1950), "Sholi o'rimi" (1953), "Traktorga yoqilg'i quyish" (1955), "Traktorchilar nonushtasi" (1957) kabi asarlarida yuqorida ta'kidlanganidek, insonlar ona-tabiat qo'ynida, dala ishlari bilan mashg'ul holatda tasvirlangan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Amanullaev, A. (2022). Specific Factors Of Comprehensive Study And Analysis Of The History And Culture Of The Uzbek People. *Asia Pacific Journal Of Marketing & Management Review* Issn: 2319-2836 Impact Factor: 7.603, 11(02), 1-4.
2. Amanullaev, A. A. (2022). Current Issues In The Training Of Future Teachers Of Fine Arts. *Asia Pacific Journal Of Marketing & Management Review* Issn: 2319-2836 Impact Factor: 7.603, 11(03), 1-3.
3. Абдимуминова, Д. А., & Амануллаев, А. А. (2018). Использование Традиций Этики " Устоз-Шогирд"(Мастер и Ученик) На Занятиях Прикладного Искусства. *Novainfo. Ru*, 2(85), 203-206.
4. Abdumo'Minovich, A. A. (2023). Qadimda Ustalarining Shogird Tayyorlashda O'Ziga Xos Milliy Ananaviy Asoslari. *Journal Of Universal Science Research*, 1(5), 1440-1447.
5. Abdumo'Minovich, A. A. (2023). Bo'lg'Usi Tasviriy San'At O'Qituvchilarini Tayyorlashda Hozirgi Davr Dolzarb Masalalari. *Journal Of Universal Science Research*, 1(5), 1423-1429.
6. Sodiq, Am (2022). Tasviriy San'At Asarlarida Kopozltsiyaning Baddiy Qimmatini Tahlil Va Tashrib Bera Va O'Quvchilarning Baddiy Idrok Haqidagi Bilimlarini Oshirish. *Xalqaro Jurnal Ijtimoiy Fan Va Interdisplinar Research* Issn: 2277-3630 Ta'Sir Faktori: 7.429 , 11 (03), 149-151.
7. Sodiq, A. M. (2023). Bolajak Tasviriy Sanat Oqituvchilarida Badiiy-Ijodiy Mahoratlarini Rivojlantirishda Manzara Janridan Foydalanish Usullari. *Journal Of Universal Science Research*, 1(5), 1430-1439.
8. Muhammad, A. (2022). Peculiarities Of The Scientific Study Of The Relationship Between Composition And Color In The Genre Of Landscape. *Asia Pacific Journal Of Marketing & Management Review* Issn: 2319-2836 Impact Factor: 7.603, 11(02), 5-8.
9. Abdumo, M. A. O. G. L. (2022). Ochiq Havoda Insonlarni Turli Xolatlaridan Tasvirlar Bajarish Texnologiyalari. *Science And Education*, 3(9), 474-480.

10. Abdumo'Minova, D. A. Q. (2022). Talabalarga Tasviriy San'Atdan Mashg'Ulotlarni Tashkil Etishda Qalamtasvirning Nazariy Qonunlardan Foydalanish. *Science And Education*, 3(9), 467-473.
11. Dildora, A. (2022). Training Of Professionals With Positive Human Qualities In The Lessons Of Fine And Applied Arts In The Education Of The Modern Spirit. *International Journal Of Social Science & Interdisciplinary Research* Issn: 2277-3630 Impact Factor: 7.429, 11(03), 152-154.
12. Dildora, A. (2022). The Emergence Of Some Modern Problems In The Field Of Architecture In The Modern Construction Of Ancient Cities Rich In Historical Monuments And Relics. *Asia Pacific Journal Of Marketing & Management Review* Issn: 2319-2836 Impact Factor: 7.603, 11(02), 9-11.
13. Қизи, А. Д. А. (2023). Разработка Технологий Практического Обучения Учащихся Изобразительному Искусству. *Innovation: The Journal Of Social Sciences And Researches*, 1(4), 201-203.
14. Абдумуминов, М. А. Ў. (2022). Развитие Творческих Способностей Студентов Путем Изучения Произведений Современных Узбекских Художников-Живописцев. *Innovation: The Journal Of Social Sciences And Researches*, 1(2).
15. Sadiq, A. M. (2024). Studying The Stages Of The Historical Development Of The Landscape Genre And Its Importance In The Development Of The Artistic And Creative Skills Of Future Visual Arts Teachers. *International Journal Of Research In Commerce, It, Engineering And Social Sciences* Issn: 2349-7793 Impact Factor: 6.876, 18(01), 28-32.
16. Abdinabi, A. (2024). The Compositional Structure Of The Works Of Artists Who Created Still Life In Painting Is Their Scientific Analysis. *International Journal Of Research In Commerce, It, Engineering And Social Sciences* Issn: 2349-7793 Impact Factor: 6.876, 18(01), 17-21.
17. Қизи, А. Д. А. (2023). Разработка Технологий Практического Обучения Учащихся Изобразительному Искусству. *Innovation: The Journal Of Social Sciences And Researches*, 1(4), 201-203.
18. Dildora, A. (2024). Teaching Composition To Students In Fine Art Educational Institutions And Developing Artistic And Creative Thinking As A Pedagogical Problem. *International Journal Of Research In Commerce, It, Engineering And Social Sciences* Issn: 2349-7793 Impact Factor: 6.876, 18(01), 22-27.
19. Ubaydullayev, M. A. (2023). Development And Popularization Of Methods Of Teaching Students Of The Direction Of Fine Arts Through Information Technology. *Евразийский Журнал Академических Исследований*, 3(2), 166-169.
20. Убайдуллаев, М. А. (2022). Проблема Профессиональной Компетентности В Подготовке Будущих Учителей Изобразительного Искусства В Интерпретации Зарубежной Педагогики. *Science And Innovation*, 1(Jssr), 177-182.
21. Pulatov, D., & Ubaydullaev, M. (2023). Formation Of New Creative Directions In Modern Fine Art Of Uzbekistan. *Solution Of Social Problems In Management And Economy*, 2(2), 34-39.
22. Saymamutovich, P. D., & Akhmadjonovich, U. M. (2023). The End Of The 20Th Century The Beginning Of The 21St Century Uzbekistan Magnificent Sculpture. *Open Access Repository*, 4(2), 102-107.
23. Убайдуллаев, М. А. (2022). Композиция Асосларининг Тасвирий Санъат Дарсларида Кулланилиши. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural And Social Sciences*, 2(12), 329-332.
24. Abdinabi, A. (2024). The Compositional Structure Of The Works Of Artists Who Created Still Life In Painting Is Their Scientific Analysis. *International Journal Of*

---

Research In Commerce, It, Engineering And Social Sciences Issn: 2349-7793 Impact Factor: 6.876, 18(01), 17-21.

25. Abdinabi, A., & Rayhona, T. (2024). Specific Characteristics Of The Foundations Of Artistic Creativity In The Types And Genres Of Fine Art. Web Of Teachers: Inderscience Research, 2(3), 219-228.